**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Pedagogika” fakulteti**
**“San’at” kafedrasi**

**Tasviriy san’at tarixi fanidan**

# KURS ISHI

**Mavzu:** **O’zbekiston me’morchiligi (Toshkent shahridagi tarixiy obidalar haqida umumiy ma’lumot)**


**Bajardi:** ***2“A” guruh talabasi – Axmadjonova S.***

**Ilmiy rahbar:** ***“San’at” kafedrasi o’qituvchisi – Avliyoqulova N.***

**Kafedra mudiri:*p.f.n dotsent - Madrimov B.X.***


**Buxoro-2014 yil**

**Mavzu: O’zbekiston me’morchiligi ( Toshkent shahridagi tarixiy obidalar haqida umumiy ma’lumot).**

**I. Kirish**

**II. Asosiy qism**

**2.1 Markaziy osiyo muttafakirlarining yoshlarga hunar o’rgatish haqidagi falsafiy qarashlari**

**2.2 O’zbekiston me`morchilik san`ati**

**2.3.Me’morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik**

**2.4.Me’morchilikda dekorativ - haykaltaroshlik**

**Xulosa**

## Kirish

O‘zbekiston xalqlarining tarixini, qadriyatlarini, ilm fan va madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o‘rganish vatahlil etish g‘oyat muhimdir.«Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo‘ldiki, - degan edi Prezidentimiz I.A. Karimov, biz bosib o‘tgan yo‘limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o‘tmishdagi boy an’analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog‘imiz kerak».1 Shu maqsadda, respublikamiz hukumatining qator hujjatlari vatanimizning har tomonlamajahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san’atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahongamashhur bo‘lgan ajoyib san’at namunalaridan keng foydalanishgakatta ahamiyat berilmoqda. Shu ma’noda Respublika hukumati tomonidan xalq ta’limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997-yil «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlartayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Unda «O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagiko‘p asrlik an’analar, jamiyatning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi» deyilgan.

Qadimda odamlar yashayotgan maskanlariga, devor-u toshlarga ov jarayonlari, jang-u jadallar, bazmlar, tantanali marosimlarni aks ettirganlar. Jumladan, Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa va boshqa obidalar qoldiqlari shundan dalolat beradi. Keyinchalik, ayrim sabablarga ko‘ra tirik mavjudotni aks ettirish taqiqlab qo‘yildi. Shuning uchun tasviriy san’at o‘rnini o‘simliksimon, geometrik naqshli bezaklar egalladi. I.A.Karimov. «O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», T.: «O‘zbekiston», 1995, 9-b.2 Qarang: «Xalq ta’limi» jurnali,1992 yil,10-12 son, 1-b.4 Rang-barang, o‘simliksimon, geometrik naqshlar, ularning o‘zaro joylashishida chuqur mazmun singdirilgan.Tasvirlangan naqshlarda ramziylik ustivordir. Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarni nafis naqshlar

bilan bezar ekanlar, zavq olish bilan bir qatorda ular orqali oʻz orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh ota-bobolarimiz inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama oʻrganib, uylarni ajoyib naqshnigorlar bilan boyitganlar. Naqshlangan uyda kishilar xotirjam, ruhiy osoyishtalik ogʻushida boʻlishi, uzoq umr koʻrishini donishmand bobolar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida ilgʻaganlar. Keksa ustalarimizning aytishlaricha, qadimda naqqoshlik san’ati shunchalik rivojlangan ekanki, ular chizgan yoki boʻyagan naqshlari orqali bir-birlari bilan unsiz ovozda gaplasha olar ekanlar. Naqqoshlik san’ati tilini bilish uchun naqshning har bir unsuri va ranglarining ramziy alifbosini bilmoq kerak boʻlgan. Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Kamoliddin Behzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va naqqoshlar binolarimizni kishilar xayolini oʻziga tortuvchi, tabiatning goʻzal manzaralariga monand naqshlar bilan bezashga chaqirganlar. Kishilarni goʻzallik bilan yaqin doʻst, birodar boʻlishga undaganlar. Arab imlosi, gʻazal, bitiklar, naqshlar, me’moriy obidalar, tasviriy san’atning islimiy-tilsimiy turlari eshitish va koʻrish a’zolarimiz orqali ruhimizga hissiy quvonch olib keladi. Islom madaniyati ijod dasturida fikr va narsalarning shakl yaxlitligi ramziy-tilsimiy mazmun qobigʻ iga oʻralgan. Naqsh, chodirga oʻralgan ayolga oʻxshaydi. Naqsh-haqqoniyatni qoʻl bilan ushlab koʻrish emas, goʻzallikning mohiyatini anglash, shu goʻzallikni dilda tasdiqlash, chodir ortidagi holatga oʻzni tayyorlash va unga kirib borish timsolidir...»1 1 G’afur G’ulom. Ibtidodagi ahd. Tafakkur jurnali. 1994 №1. 53-54 b. 5 Xalqimizning bebaho madaniy merosida asrlar tajribasi jamlangan, bobolarimizning ijodiy mehnati samarasi mujassam topgan. Oʻtmishning biror-bir yorqin «ziyo» zarrasi asrlar zimistonini yoritishi mumkin. Oʻzbek xalqi san’atshunoslarini madaniy merosimiz xazinasiga munosib yodgorlik yoki yodnomalarni izlab topish, ularni chuqur oʻrganib magʻzini chaqish, ular tashkil etgan ijod pillapoyalaridan koʻtarilib, yangi zamon madaniyati ravnaqiga xizmat etish kabi gʻoyat mas’ul va e’tiborli ishlar koʻlami kutib turibdi. Oʻzi bir olam boʻlgan me’morchilik san’ati va u bilan chambarchas bogʻliq xalq amaliy san’ati, xususan naqqoshlik, oʻymakorlik, ganchkorlik, kandakorlik kabi sohalardagi ijod

namunalarini o‘rganish yo‘lida anchagina samarali tadqiqotlar mavjud. Ko‘p yillik izlanishlarning guvohlik berishicha, xalq me’morlari va xalq ustalari taomiliga xos anchagina muammolar mavjud ularga o‘zbek xalqining milliy naqshlari tarixini, maktablarini, ustalarining tajribalarini, usta-shogird an’analarini, bezaklarning ramziy alifbosini, asarlarni badiiy tahlil qilish va boshqalarni chuqur ildizigacha o‘rganish kiradi. Shunday ekan, asrlar davomida ulkan madaniy boyligimiz, xususan, o‘zbek milliy xalq amaliy bezak sarhadining keng tarqalgan turlarining o‘ziga xos tomonlari, maktablari, bajarish texnologiyasi, uslublari, ularni yaratgan ustalarning muborak nomlarini unutishga haqqimiz yo‘q. Shu sababli ham bu noyob sarhad durdonalarini saqlash, ilmiy o‘rganish, ularni yoshlarga o‘rgatish va kelajak avlodga yetkazish muhim va dolzarb vazifadir. Ushbu o‘quv qo‘llanmani yozishdan maqsad shuki, yuqorida sanab o‘tilgan bilimlarni o‘rganish hamda me’moriy bezak va amaliy san’at yo‘nalishida tayyorlanayotgan kichik kadrlarimizni jahon andozalariga javob bera oladigan barkamol insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. O‘quv qo‘llanmada o‘zbek xalqi amaliy bezak san’ati tarixi, ustoz va shogird an’analari, naqqoshlik san’ati, maktablari, ramziy naqshlarning alifbosi, amaliy san’at asarlarining badiiy tahlili, Markaziy Osiyo me’moriy bezak san’ati va ulardagi naqshlar, dunyo naqshlari, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, lug‘atlar, o‘quvchilarning olgan bilimlarini tekshirib ko‘rish uchun test savollari berilgan. Har bir mavzu foto va oq qora foto suratlar hamda jadval va chizmalar bilan boyitilgan. Mazkur o‘quv qo‘llanmada keltirilgan o‘zbek amaliy san’ati ayrim asarlari namunalarining tasvirlari va ular haqidagi ma’lumotlar gazeta, jurnal, kitoblar va boshqa manbalardan olindi. Ushbu ma’lumotlarni boyitish borasidagi ishlar bundan keyin ham davom ettirilishi tabiiy. Mualliflar kitobxonlardan ushbu kitob haqidagi taklif va mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi.

# II. Asosiy qism

## Toshkentdagi O’zbekiston xalq amaliy san’ati muzeyini.

Me’morchilik san’ati yuzasidan:

-me’morchilikda ishlatiladigan asosiy ish qurollari va materiallarni;

-me’morchilikda ishlatilidagn ayrim atamalarni - me’mor, jome, minora, rovoq, mezana, ark, gumbaz, maket, muqarnas, navo, koshin, maqbara, mexrob, peshtoq, poydevor, vassa (toqi), poyustun, exrom, order, gotika, romantizm, barakko, klassistizm, rennesans, registon, inter’yer, ekster’yer;

-O’zbekiston xududidan topilgan eng qadimgi me’morchilik obidalarini - Afrosiob, Varaxsha, Bolalik tepa, Tuproq qal’a v.b.

-O’zbekistonning IX-XIX asr va xozirgi zamon mashhur me’morchiligini;

-Jahonning qadimgi va xozirgi zamon mashhur me’morchiligini;

-me’morchilikda ijod qiluvchi 10-15 me’morlarning ismi va familiyasini;

-Jaxondagi mashhur 2-3 me’morning xayoti va ijodini;

Yettinchi sinfni bitiruvchi o’quvchilar quyidagi malaka va ko’nikmalarni o’zlashtirishlari lozim:

-tevarak-atrofni rang-barang shakllarga nihoyatda boy va go’zal ekanligini xis etish: tasvirlangan predmetlarning shakli, tuzilishi, rangi, o’lchovlari, fazoviy xolatini mustaqil tahlil qila olish;

-tasviriy san’at asarlarini idrok etish va ularni oddiy tarzda tahlil qilish (mazmuni, g’oyasi, ifoda vositalari);

-har bir tasviriy san’at asarini san’atning qaysi tur va janriga xos ekanligini mustaqil aniqlay olish;

-2-3 narsadan tashkil topgan natyurmortning o’ziga qarab rasmini ishlash;

-yorug’soya, rangshunoslik, perspektiva qonunlari asosida tasvirlay olish;

-mazu asosida rasm ishlash uchun qiziqarli mazmun tanlay olish;

-adabiy asarlar uchun Sharq mo’jaz rangtasviri uslubida rasm chiza olish;

-haykaltaroshlikda odam, xayvon va narsalarning tuzilishi, shakli va ularning xarakterli xususiyatlari, o’lchovlari va o’lchov nisbatlarini ko’ra olish;

-xaykallar ishlashda xayvon va odam shakllarining xarakterli xususiyatlarini tasvirlay olish;

-loy yoki plastilin bilan odam va xayvonlarni shakl, o’lchov va o’lchov nisbatlarini xisobga olgan holda xaykal ishlash;

-odam va xayvon xaykallarini xarakatda tasvirliy olish.

-amaliy san’at asarlarini mustaqil tahlil qila olish;

-amaliy san’at buyumlarini kuzatganda ularning turini aniqlay olish;

-amaliy san’at buyumlari eskizini ishlaganda ularning funstiyasi, shakli va bezak birligini xisobga olib tasvirlash;

-amaliy bezak ishlarida tegishli shakllarni stilizastiyalash;

-iliq va sovuq koloritdi badiiy bezak ishlarini bajarish;

-bir necha bo’yoqlarni aralashtirib murakkab rang birikmalarini xosil qilish;

-me’morchilik binolari uchun loyixa eskizini ishlash;

-mavzuli rasmlarni rang va havo perspektivasi asosida tasvirlash;

-qalamtasvirda narsalarning shakliga mos holda ularni shtrixlar yordamida tasvirlash;

-bo’yoqlar bilan ranglama, qalam bilan qoralamalar ishlash.

## 1.2.Markaziy osiyo muttafakirlarining yoshlarga hunar o’rgatish haqidagi falsafiy qarashlari.

O’zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini, har tomonlama ilmiy o’rganish va tahlil etish g’oyat muhimdir. ”Bugun bizning oldimizga shunday tarixiy imkoniyat paydo bo’ldiki, - degan edi prezidentimiz I.A.Karimov, - biz bosib o’tgan yo’limizni tanqidiy baholab, ilmiy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o’tmishdagi boy an’analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog’imiz kerak.”[1] Shu maqsadda respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlantirishga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san’atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo’lgan ajoyib san’at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu ma’noda Respublika hukumati tomonidan xalq ta’limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997 yili “ Ta’lim to’g’risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash bo’yicha milliy dastur” qabul qilindi. Unda “O’zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko’p asrlik an’analar, jamiyatning istiqbolidagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi” deyilgan.[2]

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida “Yosh avlodni ma’naviy- ahloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy – tarixiy an’analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi” deyilgan.[3]

Shuning uchun ajdodlarimiz boy tajribalarini hozirda hunar o’rgatilayotgan joylarda chunonchi: oliy o’quv yurtlari, o’rta maμsus kasb-hunar ta’limi

---

[1] “Халк таълими” журнали 1992 йил, 10-12сон 1-бет.
[2] “Халк таълими” журнали 1992 йил, 10-12сон 1-бет.
[3] Баркамол авлод Узбекистон тараккиётининг пойдевори.-Т.:Шарі-1997.-55б.

muassasalarida, malakali ustalarning shaxsiy ustaxonalarida, qo’shimcha kasb-hunar kollejlarida usta – shogird odobi to’liq o’rgatilmasligi o’quvchi-yoshlarimizni aμloq odobiga va bilim darajasiga, umuman ularning ma’naviyatining shakllanishiga salbiy ta’sir etayotganligining guvohi bo’lamiz.

Bu masalalarni amalga oshirishda ajdodlarimizni bizga qoldirgan ma’naviy xazinalaridan o’rinli foydalanib yoshlarimizga kasb-hunar o’rganish muhim ahamiyatga egadir.

Asrdan–asrga, avloddan-avlodga o’tib kelayotgan ulug’ ajdodlarimizning milliy–ma’naviy merosi, jahon stivilizastiyasi durdonalarini tashkil etar ekan, uning shaxs kamolotidagi ahamiyati cheksizdir.

Ilm–fanlarning rivojlantirish va ta’lim hamda tarbiyaning falsafiy–pedagogik konstepstiyani yaratishda Sharq mutafakkirlarning, shu jumladan al-Xorazmiy (787-850), al-Kindiy (800-870), Abu Nasr Farobiy (870-950), Ahmad al-Farg’oniy Abdulabbos Muhammad ibn-Kasirning (861 yil vafot etgan), Abu Rayhon Beruniy (973-1050), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Ibn Rushd (XII asr), Umar Xayyom (1048-1123), Tusi (1201-1274), Ibn Xoldun (XII asr), qozizoda Rumiy, Muhammad Tarag’ay Mirzo Ulug’bek (1447– 1449), Sharqning buyuk musavviri va naqqoshi Kamoliddin Behzod (1455–1535), XIV asrning buyuk mutaffakiri, jamoat arbobi va ma’rifatparvar Alisher Navoiy (1441-1501), buyuk Sohibqiron Amir Temur (1336-1405) kabilarning xizmati juda kattadir.

Ushbu buyuk mutaffakirlarning falsafiy–pedagogik merosida umumpedagogik g’oyalarni, didaktik nazariyalarning bir butun tizimini, shaxs ta’lim–tarbiyasi va shakllanishining insonparvarlik konstepstiyasini o’z asarlarida aks ettirganlar.

Allomalarimizning bizgacha etib kelgan manba’lari asrlar davomida ta’lim–tarbiyaning bir butun falsafiy pedagogik konstepstiyasini ishlab chiqqanlar.

Avliyolar–jahonning nuri insonlar ko’zining gavharlaridurlar. So’fiylarni xalq “ahliullohi”, “avliyo”, “ahli μol”, “ahli botin”, “arbobi tariqat”, “aziz avliyo”, “anbiyolar”, “shayxashoyixlar”, “darvesh”, “qalandar”, ”faqir” degan nomlar

bilan tilga olganlar. Xalq ulardan tashqari, shayx eshonlar, sayidlar, devonalar, darveshlar, va qalandarlarni ham hurmat qilgan.

So'fiylarni ko'pchiligi birovlarga qaram bo'lmaslik birovlar hisobiga tekinxo'r bo'lib yashamaslik, o'zi halol mehnatlari hisobiga hayot kechirishini targ'ib qilganlar. Ular biror hunar bilan shug'ullanganlar. Shayx unnun Misriy– kimyogar, Abu Said Xarroz–etikdo'z, Xoja Ali Romitaniy to'quvchi, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy – paxsa devor uruvchi, Shayx Muxiydin Sakkokiy – pichoqchi, Shayx Abu Hofiz Xaddod – temirchi, Shayx Abulabbos - qassob, Shayx Abul – Xasan –pardozchi, - Xammol, Xoja Baxouddin - kimxob matoga naqsh bosuvchi, uning piri Said Amir Kulol – kulol va paxsa uruvchi bo'lgan, Salmon, Forsiy Iroqda hokim bo'lib turganda bo'yra to'qib sotib, tirikchilik qilgan.[1]

Asrlar davomida hunarmandchilik ustoz va shogird an'analari asosida rivojlanib taraqqiyot etib kelgan. Hunar qadimdan muqaddas sanalgan bo'lib O'zbekiston qadimdan hunarmandlar markazi bo'lgan. Har bir xalq kelajak avlodlariga o'zidan qoldirgan takrorlanmas hunarlari bilan qadrlangan.

O'zbekiston qadimda hunarmandlar markazi bo'lgan desak xato qilmagan bo'lamiz. Masalan, Andijon viloyatda Marg'ilon, Namangan viloyatida Chustda xalq hunarmandchiligi gullab chunonchi zargarlik mahallasi, pichoqchilik mahallasi deb yuritilgan. O'sha davrlarda yana misgarlik, bo'yrachilik, sandiqchilik, pichoqchilik, aravasozlik va kulolchilik mahallalari mavjud bo'lgan. Masalan, XIX asr boshlarida Buxoroda bo'yrachi mahallasi bo'lib u erda umuman Buxorodagi bo'yra to'qiydigan ustalar yashagan. Bo'yrachi mahallasida 120 ta oila yashagan.

Ushbu davrda hunarmandlarning taqsimlanishi, ularning aniq bir hunarmandchilik uyushmalariga tashkiliy tarkibiy shakllantirish yuzaga kelgan. Hunarmandchilik turlari bo'yicha hunarmandchilik tashkiloti, kasb-hunarga oid faoliyatini va ta'lim–tarbiyasini belgilab beruvchi, o'zining xususiy nizomiga ega bo'lgan maxsus risolalari bo'lgan, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy maqomiga ega bo'lgan.

---

[1] А.Абдурахманов А.Соадатга элитувчи билим. Тошкент: Моварауинахр, 2001,371 –бет.

Hunarmand ajdodlarimiz me'mor Ali ibn Muhammad Saraxsiy tomonidan qurilgan Oqsaroy, ustoz Muhammad Yusuf, Muhammad ibn Maxmud Isfaxoniy Go'ri Amir Majmuini (maqbara, madrasa, xonaqox), me'mor Mimxoqon ibn Xo'ja Muhammadamin Abulazizxon madrasani, Sherdor madrasasining bosh me'mori Abduljabbor, Shohizinda ansambli ota va o'g'li Shamsiddin va Zayniddin Buxoriylar, xalq ustalari Shayx Muhammad ibn Hoji bandgir, Ali Nasafiy, Yusuf Sheroziy kabilarni bajargan ustalarimiz asarlari hanuzgacha saqlanib qolib kishilarni ta'lim–tarbiya berishda asosiy manbalardan bo'lib kelmoqda.

Qadimiy xalq ustalarini ishlarini davom ettirib, ularning bebaho meroslari, ijod mahsullari avlodlarimizda hattoki jahon san'atining durdonalariga aylanadi.

Bobokolonimiz Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida naqqosh hunarmandni ta'riflar ekan ustani mahoratiga alohida e'tibor berib shunday deydi:

"Hunarvarlarki qilg'aylar hunar fosh,
Agar xorotaroshu xoh naqqosh.
Biri hardam yo'nib yuz nav' xora,
Ki qilg'ay havz forshu izora.
Biri hardam chekib yuz naqsh dilkash,
Ki har bir qasrni qilg'ay munaqqash...
Ko'rinib har zamoni ko'zga bir shakl.
Ko'z olg'och bo'lg'usidir o'zga bir shakl.
Chu bo'ldi jilvagar ashkol yuz nav',
Anga ham bo'lg'usi timsol yuz nav'.[1]

Alisher Navoiy yaratgan adabiyot va san'at durdonalari O'rta asr me'morchilik va hunarmandchilikni umuman 15–asr estetik dunyosini chuqur o'rganish uchun bebaho manba bo'lib qoldi.

Abu Nasr Muhammad ibn O'zlug' ibn Tarxon al-Farobiy at-Turkiy (873-950) qomusiy bilimi, fan va san'at sohasidagi nodir asarlari bilan ulkan jasorat ko'rsatgan ulkan mutafakkir va faylasuf olim insonlarni ilm-ma'rifatli bo'lishga halol mehnat qilishga, kasb-hunar egallashga hamda inson-shaxsining ijodiy va

[1] Алишер Навоий. Фарход ва Ширин, Асарлар 7 –жилд. Т.: 1964 – 47 бет.

bunyodkorlik kuchini, tafakkurini va uni kamolotini, qadr - qimmatini g'oyat ulug'lashga chorlaydi.

U "Fozil odamlar shahri" asarida shunday deydi: Har bir kishi o'zi yoqtirgan kasbni egallab, o'z kasb-hunarini mukammal bilmog'i va yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-atvor, shaxsiy fazilatlariga ega bo'lmog'i kerak", deb ta'kidlaydi.

Farobiyning me'morlar va hunarmandlar ta'sirini tarixiy faiat yaqqol isbot etadi. Abul Vafo Buzjoniy (940-998) o'z davrining etuk matematik olimi sifatida mashhur bo'lgan. Ayniqsa uning hunarmand ustalar uchun mo'ljallangan yozgan geometrik yasash usullari haqidagi kitobi[2] qo'llanma sifatida foydalanilgan.

Atoqli ma'rifatparvar shoir va mutafakkir Yusuf Xos Xojibning asarlarida yoshlarga hunar o'rgatish, hunarmandchilik odob ahloq haqida fikrlarini ilgari suradi.

Mutafakkir "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim") nomli asarida "...har bir ota-ona o'z farzandiga yoshligidan hunar o'rgatish kerakligini qayta-qayta uqtiradi.

Kaykovus tomonidan yozilgan "Qobusnoma" asarida hunar va hunarni o'rganish zarurligi haqida g'oyalarni ilgari suradi.

"Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf' etkurmas. Bilursanki, xori mug'ilonning tani bordur, ammo soyasi yo'qdir. Hunarsiz kishi ham xori mug'ilon yanglig' na o'ziga na o'zgaga foyda berur" yana u "Ey farzand, sen ham hunarni donodan o'rganmasang, nodondan o'rgang'il. Barcha katta, kichikka hunar o'rgatmak vojibdur, nedinkim kishi hunar o'rganmoq bilan hamrohlaridan baland martabada bo'lur".

Xalq donishmandlaridan biri bunday degan edi: "Ey farzand, agar oqil va dono bo'lay desang, hunarmand bo'lishni o'yla. Hunarmandchilik sababidan izzat va hurmatga erishasan, agar hunardan bebahra bo'lsang, quruq, soyasiz daraxtga o'xshab qolasan.

Ey farzand, aqlli, farosatli va ilmu hunarni kishilar bilan do'st bo'l hunarsiz kishida xosiyat bo'lmaydi. Mehnatdan, ilm-hunar o'rganishdan uzoqlashma"

Axloqshunos olim majid Havofiy hunarmandchilik to'g'risida bunday degan edi. ”Kasb va hunarmandlarni e'zozla. Hunarmandchilikka ruju qo'ygan xalqning hurmat va e'tibori oshadi”.

Payg'ambar Dovud alayhissalom – temirchilik, Arastudan keyingi ikkinchi muallim, deya shuhrat topgan qomusiy olim Farobi – bog'bonlik, shoir Sakkokiy – pichoqchilik, shoir Zavqiy esa maxsido'zlik bilan tirikchilik o'tkazishgan. Bobomiz Hoja Bahovuddin Naqshband ham hunarmandchilik bilan shug'ullanib, Turkistonda birinchilardan bo'lib, odamlarni hunar bilan shug'ullanishga chorlaganlar.

U qalin ipakli mato – kimxob bilan tirikchilik qilar, shogirdlariga ham hunar o'rgatar edi. Shayx Bahovuddin darveshlar, so'fiylarni o'zlarining osoyishta, bexavotir yashashlari, birovlarning qo'liga qarab qolmasliklari uchun halol mehnat va hunarmandchilik bilan shug'ullanishga chaqiradi. Bu sohada o'zi ibrat ko'rsatadi. Dastgohda to'quvchilik qilib, matoni naqsh bilan bezab,shogirdlariga hunar o'rgatadi. Sa'diy Sheroziy hunarni hamma narsadan yuqori qo'yadi. “Guliston” asarida bolalar tabiatini juda yaxshi bilgan va chuqur his qilgan holda, ularni yoshlikdan mehnat qilib, ilmu hunar orttirishga chaqiradi.

Shoir ilmu hunarni o'rganish yo'lida har qanday mashaqqat, og'irliklardan qaytmaslik lozimligini qayta-qayta ta'kidlaydi.

“Hunar lozim, naqshni chizsa bo'lg'ay”, Devorlarga bo'yoqlar po'shti, zangor: Agar bo'lmas ekan fazlu hunar ham qilib bo'lmas odamga naqsh devor”.

Qadimdan xalqimizni har bir fuqarosi qaysi kasbda ishlamasin, albatta biror hunar egasi bo'lgan. Chunki dono xalqimizda shunday naql borki:” Hunarsiz kishi bilan do'st bo'lmagin, chunki u na do'stga, na dushmanlikka yaraydi”, - deb bejiz aytmaganlar.

Rivoyatlarda aytishlaricha: “Dovud alayhissalom podshoh bo'lgandan so'ng, bir kuni dehqon kiyimida ko'chaga chiqib bir kampirdan so'rabdilar: “Dovud qanaqqa odam? Yaxshimi yo yomon? Kampir:” Dovud yaxshilikka yaxshi-yu, lekin u fuqarolar haqini emoqda. Chunki uning hunari yo'q”, deb javob beribdi.

Aslida bu kampir farishta ekan. Shu kundan e’tiboran Dovud alayhissalom temirchilik kasbini o’rganib, o’z kasblari orqali rizq topa boshladilar.

Qadimdan ota uchun uch narsa musulmonchilikda qarz sanalgan, ulardan birinchisi bolaning qo’lini halollab, xatna qilishdir.

Ikkinchisi, unga ilm berib, hunarli qilish, dunyoni tanitish. Uchinchidan, uylantirib, hovli–joy qurib, mustaqil hayotga yo’llanma berishdir.

Ota-bobolarimizning ming asrlar davomida tajribalariga asoslanadigan bo’lsak, farzandlarimizga avval hunar o’rgatishni, keyin ta’lim o’rgatish lozimligini aytganlar. Rivoyatlarda aytishlaricha bir kishi farzandining madrasaga olib boribdi. Ota domlaga qarab: “Mening farzandimga ta’lim bersangiz”, - debdi. Shunda domla bolaga qarab: “Uni hunari bormi”? - degan ekan. “U hali yosh-ku, hunari yo’q”, deb javob beribdi. Shunda domla: “Avval o’g’lingiz hunar o’rgansin, keyin ilm o’rgataman”, degan ekan.

Qadimdan har bir hunar muqaddas hisoblangan bo’lib, uni hurmatlab, e’zozlab kelingan. Har bir hunarni o’z ustalari va uning shogirdlari bo’lgan. Ota-bobolarimiz ustoz va shogirdlar uchun o’ziga xos odob–axloq maxsus qonun qoidalari, urf-odatlari, madaniyatlari, irmlari, duolari milliy an’analarini ishlab chiqilgan bo’lib, bu qoidalarga qat’iy rioya qilganlar. Ustozning ham, shogirdlarning ham oldiga qo’yilgan o’ziga yarasha vazifalari, burchi bo’lgan.

Har bir hunarni qadimdan uyushmalari bo’lib, o’z a’zolarining ma’naviy hayotini, kasb-hunarga oid faoliyatini va ta’lim–tarbiyasini belgilab beruvchi, o’zining xususiy nizomiga ya’ni “Risolasiga ega bo’lgan. Risola 16-18 sahifadan iborat bo’lib, “udumlar nizomi” usta-hunarmandlar va ularning shogirdlarining ma’naviy hayotlari va mehnat faoliyatlarini belgilab beruvchi me’yoriy hujjat sifatida foydalanishlari uchun mo’ljallangandir.[1]

Usta hunarmandlar oilalari kasb-hunarga oid bilim va mahoratni saqlab qolganlardan va hunarlarini nasldan-naslga o’z shogirdlari va izdoshlariga meros

---

[1] Зоҳидова Д.А.Ҳунармандчиликка кириш.(Махсус курси бўйича дастур ва услубий тавсиянома.Т.:ЎМКҲТРИ, 2001. 16 б.

qoldirganlar. Bundan kelib chiqadiki, hunarmand oilasi o'zining ijtimoiy-iqtisodiy o'rniga ega bo'lganlar.

XV asrda yashab ijod qilgan Husayn Voiz Koshifiy Sharqning mashhur allomalaridan biri bo'lib, u Alisher Navoiyning muxlisi va do'sti bo'lgan. Alloma axloq, tarix, tasavvuf, astronomiya, riyoziyot, fikh sohalariga doir qirqdan ortiq asar yaratgan. Uning ayniqsa Futuvvatnomai Sultoniy yohud javonmardlik tariqati asari besh yuz yil davomida axloq va odob qo'llanma qo'ldan-qo'lga o'qib kelinmoqda.

Alloma ayniqsa usta va shogird odobi, shogird tushish odobi, hunarmand bilan xaridor o'rtasidagi munosabatlar mezoni, Usta degan nomni olish, qoidalaridan va boshqalar haqida chuqur falsafiy fikr yuritadi.

U aytadiki:" Insonning ruhini tarbiyalash, parvarish etish orqali uni go'dak va hamda xulq atvorli, fazilatli qilib etishtirish mumkin"[2] –deydi.

Ushbu asarning o'n to'rtinchi faslida hunarmandlarni savdo sotiq qilishining odobi juda qiziqarli ma'lumot beradi.

"Agar barcha kasolar uchun zaruriy odoblar xulosasi nechta, deb so'rasalar, sakkizta deb aytgil: birinchidan, o'z kasbini haromdan, shubhali mol mablag'dan pok saqlasin. Ikkinchidan rizq-ro'zi zaruriyati uchungina kerakli kasb bilan shug'ullansin, kasbni mol-dunyo to'plashga sarflamasin. Uchinchidan, kasbni obro' olish, yaxshi nom chiqarishning sababi, deb bilsin. To'rtinchidan, moli harom odamlar (amaldorlar, poraxo'rlar, qaroqchilar, o'g'rilar, qimorbozlar, kazzob do'kondorlar) bilan muomala qilmasin. Beshinchidan, o'z hunarida bee'tiborlilik, xato-nuqsonlarga, ayb ishlarga yo'l qo'ymasin, har xil ifloslikar, bulg'anishlardan saqlansin. Oltinchidan, insof chizig'idan tashqari chiqmasin, mol-matoni tanimaydigan odamlar muomala qilmasin. Ettinchidan, agar tarozi ahlidan (narsa tortuvchi) bo'lsa, toshdan urib qolmasin va ortiq ham bermasin. Sakkizinchi, gazlama o'lchab sotuvchilar ahlidan bo'lsa, o'ziga ko'p olib qolib, boshqalarga kam bermasin, chunki baraka to'g'rilikda va jamiyatning insof yuzasidan baham kun kechirishidadir.

---

[2] Ўша асар 7 –бет.

Agar narsa sotib olishning odobi nechta, deb so'rasalar, sakkizta deb aytgil. Birinchidan  shuki, xaridorga muloyim gaplar gapirsin, ikkinchidan, xaridor qaerdan topilsa ham qizg'anmasin va dag'allik qilmasin, uchinchidan, sotadigan narsasini hadeb maqtamasin, to'rtinchidan, dag'al va qalbaki molni sotmasin, agar sotadigan bo'lsa, aybini xaridorga aytsin.  Beshinchidan, tarozidan, o'lchovidan urib qolmasin. Oltinchidan, agar xaridor olgan narsasini qaytarib olib kelsa va molga zarar etmagan bo'lsa, savdo ba'yini buzib, jarima undirib olsin. Ettinchidan, agar biror mo''tabar odamning naqd puli etmay, narsa unga zarur bo'lib qolsa, nasyaga molini bersin va qo'pollik qilmasin. Sakkizinchidan, bozor talabidan oshirib sotmasin, xaridorni aldamasin.

Agar narsa sotib olishning odobi nechta, deb so'rasalar, o'n ikkita deb aytgil: birinchidan, molni halol pulga sotib olsin. Ikkinchidan, qalbaki va soxta pul bermasin. Uchinchidan, bozor narxidan kamga olmasin...  To'rtinchidan, sotuvchiga qo'pol muomala qilmasin. Beshinchidan, sotuvchidan molni qaerdan keltirding, qanchaga, nimaga sotib olding deb so'rab, ovora qilmasin.  Oltinchidan, sotib olgan narsasi yuzidan hadyalar bersin. Ettinchidan, sotib olgan narsasini qaytarib sotuvchiga bermasin. Sakkizinchidan, sotib olgan narsasini etagiga solmasin.  To'qqizinchidan, sotib olgan narsani engiga joylamasin.  O'ninchidan, sotuvchidan muzkosa (kosa puli) talab qilmasin.  O'n birinchidan, sotib olgan narsani toza idishga solib olsin. O'n ikkinchidan, xarid qilingan narsani ochiq holda emas, o'rab, berkitib olib yursin"[1].

Biz bilamizki, kadrlar tayyorlashning Milliy dasturida  mutaxassislar tayyorlash va ta'lim va tarbiya tizimida islohatlar o'tkazishning taktika va strategiyasi bayon qilib berilgan. Ta'lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, rivojlangan mamlakatlar miqyosida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning yuqori ruhiy va ma'naviy talablarga javob bera oladigan milliy tizimini tashkil qilish, ushbu dasturning asosiy maqsadi qilib olingan bo'lib unda I. A. Karimov takidlaydiki "Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat erosti va erusti

[1] Ўша асар 69-70 бетлар

tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudratli va ishlab chiqarish salohiyatiga bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir"[2].

Shunday ekan milliy o'zlikni anglash xalqning ruhiy - ma'naviy va aqliy qadriyatlari umumiy tiklash jarayonida, ajdodlarimizning buyuk olim-mutaffakirlari tarixiy ma'naviy merosini va ular tomonidan ishlab chiqilgan ustoz va shogird odobini qayta tiklash muhim ahamiyatga ega.

Tasviriy san'atda kompozitsiya qonun va qoidalari insoniyatning ibtidoiy taraqqiyot davridan boshlab shakllana boshlangan.

Qadimgi sharq san'atidagi kompozitsiya ibtidoiy davrdan aloxida farq qiladi. Qadimgi sharqda kompozitsiya mavzusi tekislikda ma'lum tartibda tasvirlanib, quldorlik jamiyatining (marosimlari) qonunlarida bo'ysindirilgan.

Qadimgi misr san'atida kompozitsiyani dastlabki yangi usullari paydo bo'la boshlagan. Bu esa jamiyatda ijtimoiy xayotni ongli rivojlanishni natijasidir. Tasvirga chizgi, o'lcham, rang va tus munosabatlari yuqori darajaga qo'tarildi.

Qadimgi dunyo rassomlari tabiat yaratgan o'simlik, barg va gullarni tuzilishiga, yil faslini ketma – ket kelishida simmetriya va ritm tushunchaligini anglab, o'z ijodiy asarlarida, kompozitsiyada qo'llay boshladilar. Shuning uchun qadimgi greklar relef, fronton kompozitsiyalarida ritm va simmetriyadan unumli foydalanganlar. O'ygonish davrigacha kompozitsiya faniga bagishlangan biror bir nazariy qo'llanma yaratilmagan.

O'ygonish davri renessans insoniyatga ulug san'at allomatlarini etqazib berdi. O'sha davr rassomlari esdalik, kundalik, ilmiy maqolalarida kompozitsiya haqida qimmatli fikr, xulosalalarni yozib qoldirdilar.

Erta o'ygonish davrining vakillari Djotto va Mazachcho o'z ijodlarida perspektiva, plastik anatomiya, geometriya qonunlarini amalda qo'llab, kompozitsiya fanining bilimdoni ekanliklarini misolda qo'rsatdilar. Yuqori o'ygonish davri rassomlar san'atning xar – xil turlarini bir – biri bilan boglab, uning nazariyasini ilmiy asoslagan xolda rivojlantirdilar.

[2] Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққитининг пойдевори. Т: Шарқ 1997, 5 – бет.

Ular perspektiva yordamida kartinada chuqurlik, masofani tasvirini haqqoniy namoyyon etishga erishishdi. Qo’p yillik kuzatuv va analiz natijasida qo’zga qo’ringan rassomlarning asarlarini goyya tuzilishi, rang echimidagi uslub, amaliy umumlashtirib Albrext “Rang tasvir xaqida uch kitob” ilmiy nazariy meros yozib qoldirdi.

Leonardo da Vinchi va Albrext o’z maqolalarida va badiiy asarlarida statik (xarakatsiz) va dinamikaga (xarakat)aloxida axamiyat bergan edi.

Fransuz rassomi E. Delakrua o’z kundalik va ilmiy maqolalarida Leonardo da Vinchi, A. Dyurer, R. Rubenslarni kompozitsiyada oid qonunlarini kengaytirib chuqur ma’nolar bagishlab davom ettirdi.

Inson qalbiga olloxdan inom etilgan go’zallik va qobiliyatni o’ziga mujassam etgan allomalarni yer yuziga kelishini insoniyat biz necha bor gubori bo’lgan Leonardo da Vinchining har qanday mushkul ishlarni osonlik bilan uddasidan chiqadigan odil inson shaklida qo’ramiz.

Xudo bergan betakror aql – zaqovatli, xotirasi kuchli buyuk alloma chizgan tasvirlari bilan insonni xayratga solar, fikr – muloxaza kuchi bilan lol qoldirardi. U Milan shaxriga Dominikanlik aka – ukalar uchun “Maxfiy kecha” nomli go’zal asar yaratdi. Unda avliyolar chexrasiga ulugvor qilib tasvirlanadi. Faqat Isusni yuz qiyofasini tasvirlashda iloxiy qudrati etmaydi chala qoldirgan va umrini oxirigacha bitira olmagan edi. Leonardo odam anatomiyasini Salena ta’limotiga asoslangan xolda chuqur o’rgandi, murdalarning suyak muskullarini qizil qalamda sinchiklab chiza boshladi va odam anatomiyasi tasvirlari kitobini yaratdi. U otlar anatomiyasi kitobini xam yaratgan. Bu anatomiyaga oid chiziklarining qo’p qismi Leonardoning avtoportretlari bilan bir qatorda bizlargacha etib kelgan.

Leonardo Franchesko del Djokondo uchun uning xotini Liza portretini 4 yil mobaynida ishladi, ammo shunday bo’lsada portretni oxiriga etkaza olmadi. Portretda ayyolning xamma go’zal xislat, fazilatlari, yarqiragan xam qo’zlari kipriklarigacha jonli odam nigoxi qo’rinishida asosli qilib tasvirlagan.

Tasviriy san’atda bunday toj asarning mavjudligini dunyoda eng qobiliyatli, zexnli olim, alloma musavvir qalamiga insonlarni beixtiyor xayratga soladi.

XVI – oxirida kompozitsiya o’quv fani sifatida shakllana boshladi. Buni V. Neleng, S. Vasilyov qabi metodistlarning Franstiya safaridan so’ng o’qitish tizimi xaqidagi xisobotlari orqali bilish mumkin. 1882 – yili taniqli pedagog – rassom Violil le Dyukani “Tarixchining tarixi” kitobi rus tiliga tarjima qilgan edi. Bu kitob shaxsiy ish tajribasidan kelib chiqib, tasviriy san’at o’qitish metodikasidan suhbat tarzida berilgan. “Sochinenie” qismida, xavo perspektivasi ma’lum qonunlarga tayanishini o’qtirib o’tilgan. Tasviriy san’atga kompozitsiya masalalari xaqida dastlabki metodik bayyonnoma muallifi, amerikalik pedagog – rassom A.Donddir. Bu o’quv qo’llanmada tasvirda xar xil shakl, tuslarni qogoz va matoga to’gri joylashtirish, qogoz xajmi va formatiga aloxida axamiyat bergan. Tasviriy san’atda yangi impressionizm oqimining paydo bo’lishi – rang tasvirda yangilanishga vosita bo’ldi, san’atning oldinga rivojlanishiga turtki vazifasini o’tadi.

XX asr boshlarida Garbiy Evropa davlatlarida va Rossiyada xar – xil badiiy oqimlar paydo bo’la boshladi: futurizm, kubizm, ekspressionizm, dadaizm, syurealistlar shular jumlasidandir.

Tartibsiz muloxaza, qarama – qarshi fikrlar kurashi tasviriy san’at va kompozitsiyani o’qitish metodikasida chalkashlik va tartibsizlik olib keldi. XX asrning birinchi choragida tasviriy san’at Garbiy Evropa va Amerikada berk ko’chada kirib qolgan edi.

Shu bilan birga ko’p san’at maktablarida rassomlar realistik san’at yo’lida kompozitsiya nazariyasini o’rganishni davom ettirdilar. Rossiya tasviriy san’atida XVIII asrgacha ikona rangtasviri taraqqiy etgan. Eng qobiliyatli rus ikonachi rassomlardan bir Andrey Rublyov edi. Uning mashxur “Troista”si ikona janridagi qadimgi klassik kompozitsiya namunalaridan biri xisoblanadi. Kompozitsiyada bu rassom gavda xolatining aniq tasviri, rang garmoniyasi va yaxlitligiga erishdi.

XVIII asr rus tasviriy san’atida, realistik badiiy maktabning asoschilari A.R. Losenko, G. Ugryumovlar xisoblanadilar.

Rossiyada Peterburg badiiy akademiyasini bitirgan A. Ivanov, A. Egorov, V. Shebuev, A. Venestianov, K. Bryullovlar o’z ijodiy va pedagogik faoliyatlarida

kompozitsiya muammolariga ko’proq axamiyat berib, tasviriy san’atni yangi pogonaga qo’tardilar.

1757 – yili tashqil topgan Peterburg Badiiy akademiyasida mutaxassislik fanlarini o’qitishni muntazam tarzda yo’lga qo’yilishi, Rossiya tasviriy san’atini rivojlanishiga o’z ta’sirini qo’rsatdi.

Mashxur rassom va pedagog A.R. Losenko o’z faoliyatida ijodiy yondashib kompozitsiya masalalari ustida ishladi. U xamma tasviriy vositalar asar goyasiga, mazmuniga qaratilgan bo’lishini ta’qidladi.

Losenko o’z vaqtida akademik ta’lim metodini yangilashni angladi va yangi uslub – metodikasini ishlab chiqdi. Uning yaratgan Akademiya o’qitish nazariyasi XIX asr o’rtalarigacha davom etdi. Losenko davridayoq Rossiya badiiy Akademiyasi dovrugi va obro’yi dunyoda tarqaldi. A.R. Losenko yuqori saviyali kompozitsiya ustasi edi. Buni “Vladimir pered Rognedoy” kartinasi misolida qo’rish mumkin. Losenko dars bergan tarixiy janr klassika kartina tuzilishni masalalariga qo’p e’tibor berilar edi.

P.S. Sokolov, G.L. Ugryumov, O.A. Kiprenskiy, K.R. Bryullov qabi ulug rassom pedagoglar A.R. Losenkoda o’qib ta’lim oldilar.

Losenko boshlagan ishni va Akademiyadagi pedagogik faoliniyatni S.L. Kozlov, R. I. Sokolov (1782 y) davom ettirdilar.

Ayniqsa Ugryumov, Losenko boshlagan tarixiy janr klassika kompozitsiyani davom ettirdi, uning kompozitsiya nazariyasini mukammallashtirdi.

Uning o’quvchilaridan A. Ivanov, A. Egorov, V. Shebuevlar xam ustozning uslublarini davom ettirdilar.

Shunday qilib rassom – pedagog va metodistlar XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida tasviriy san’at va kompozitsiyani o’quv predmet sifatida rus badiiy maktabda o’qitilishi mumkinligini isbotladilar. Bu yo’nalish rangtasvir kompozitsiyasi ustasi K. Bryullov tomonidan qo’llab quvvatlandi.

K.Bryulov o’zining pedagogik va ijodiy faoliyatida gavdaning plastik tuzilishiga, asarda kompozitsiya muvozanatini haqqoniy tasvirlashga axamiyat berdi.

“Pompeyaning so’nggi kuni” asari bunga yorqin misol bo’la oladi. Asarda insonning xayyotda sodir bo’ladigan xavfli, fojiali dramatik daqiqalardagi xolati, tabiatda chaqmoq natijasidagi kuchi yorug nurlari ostida bo’layotgan ta’sirchan voqea kontrast ranglarda tasvirlangan.

Odamlar qo’zidagi qo’rkinch, ularning go’zal nigoxi, xatti xarakatlari, shijoatli onalar badiiy yuksak maxorat bilan, yuqor darajada jozibali tasvirlangan. Bryullov bu asarida badiiy Akademiyaning yuksak an’analarini davom ettirdi.

XIX asrning kkinchi yarmida ilgor ma’rifatli rus rassomlari tashqi dunyoni xayyotga to’gri tasvirlash uchun kurash olib bordilar. Realistik san’atning rivojlanishida xissa qo’shdilar.

I.N. Kramskoy boshlik sayyor rassomlar katta tasvir qo’rsatdilar.

Asosan halq manfaatini qo’zlab, xayotdagi muxim voqealarni kuzatib, ijod qildilar, asar goyasga katta axamiyat berdilar. Qo’plab rus rassomlarining ustozi.

R.R. Chistyakov mutaxassislik fanlarni o’qitishning yangi tizimi yaratdi.

Realistik san’atning buyuk namoyondasi I.E. Repin kompozitsiyani nazariy va amaliy rivojlanishiga muxim xissa qo’shdi. Shuningdek tarixiy janrda xar tomonlama yangi novatorlik vositalari bilan V. Shukurov rus rassomlariga o’z ta’sirini o’tqazdi.

Tasviriy san’atda kompozitsiyani riojlantirish tarixi bilan tanishib, imkoniyat darajasiga mavjud fanga tegishli ma’lumotlarni tartibli ravshda o’rganib, kompozitsiya nazariyasi haqida xulosaga ega bogliq.

## 2.2 O’zbekiston me`morlik san`ati

Me`morlik - kishilik jamiyatining eng qadimiy ilmiy, amaliy va mada-niy faoliyati bo`lib, u inson kamolotining yorqin yo`lini ifoda etadi. Me`morlik - asosan uy-joy qurilishi bilan bog’liq bo`lib, uning qonun-qoidalarini va tarixiy-taraqqiyotini o`rganuvchi fandir. Ma`morlik kishilik jamiyatini ijtimoiy-maishiy, g’oyaviy-badiiy ehtiyojlariga xizmat qiladigan, turar-joy va mehnat faoliyati uchun bino-inshootlari qurilishidan iboratdir. Me`morlik kishilik jamiyati shakllanishi bilan paydo bo`lib, u bilai birga rivojlandi, takomillashdi, jamiyat o`zgarishi bilan o`zgardi, u shakl-mazmun va xarakter jihatidan takomillashdi, asrlar osha o`z mazmuni bilan jamiyat talabiga javob berib keldi (rasmlar ………).

Insoniyat endi shakllanganda oddiy g’or va chaylalardan boshlagan me`morlik ilmi o`z boshidan ibtidoiy, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, sotsializm jamiyatlarini kechirib, o`ziga xos tartibda rivojlanib keldi. Bu davrlar me’morlik san`ati taraqqiyogi natijasida Misr ehromlari, Missopotamiya piramidalari, YUnon akropollari, amfiteatrlari, ibodatxonalari, Rim gumbazlari, ravoqlari, Samoniy, Amir Temur maqbaralari, Samarqand registonlari, Frantsuzlarning Reymee sobarlari, Hind Tojmahali va Moskva kremli ansambllari dunyoga keldi. Bu obidalar o`rtz asrning roman, gotika, doriy, ioniy, korinf orderlarini, karniz, friz, kapiteli, kolonna, baza kabi me`morlik kategoriyalarini yaratib, bular jahonning buyuk, me`morlik obidalarini yaratishning asosiy elementlari bo`lib xizmat qildi.

O`rta asr me`morchiligi o`ziga haykaltaroshlikni va devoriy rangtasvirni olib kirdi. Oddiy loy va xom g’ishtlar bilan boshlangan me`morlik materiallari pishiq g’ishtlar, koshinlar, tosh va marmar plitalargacha ko`tarilib bordi. Jahon me`morlik san`atida yaratilgan bino va inshootlarni o`z hajmini kengaytirish bilan birga, u balandlikka va er tubiga ham o`sib bordi. Osmono`par binolar bilan birga yuz metrgacha bo`lgan chuqurlikdagi er osti qasrlari (metropolitenlar) XIX-XX asr me`morchiligining buyuk taraqqiyot yillari bo`ldi.

O`rta Osiyo me`morchiligi qariyb, 3000 yillik tarixiy-taraqkiyot yoshiga ega bo`lib, u ham oddiy loy, paxsa, xom g’isht, yog’ochlar bilan boshlanib, jahonning

eng go`zal obidalarini, shaxarlarini (Oltintepa, Namoztepa, Jonbosqal`a, Qo`yqirilganqal`a, Tuproqqal`a, Teshikqal`alari, Ko`xna Urgench, Afrosiyob, O`tror, Buxoro, Samarqand, Xeva, Varaxsha kabi shaharlari) dunyoga keldi. Ularda me`morlikni eng nodir uslub va qoidalari ishlatildi. Geometrik tushunchalar, ritm, ohang, proportsiya, kompozitsiya kabilarni Abu Nasr Forobiy (873-950) me`morchilikda qo`llanishi haqida bundan kariyb 1000 yil avval o`zining qonun-qoidalarini yaratib berdi. Me`morchilikning geometrial qonunlari haqida Forobiy 10 ta kitobdan iborat asari uzoq yillar Evropada me`morlar uchun qo`llanma bo`lib keldi. Me`morlik ilmi O`rta Osiyoda ancha yillar muqaddam fan sifatida boshlangan. Ammo qurilgan obidalarning me`morlarining nomi va familiyasini yozdirishmagan. Lekin bechora me`morlar o`z nomlarini o`z asarlari mazmuniga singdira olganlar. Ular mutaxassis nazariyotchi-me`morlar ilmi bilan asta aniqlanmokda.

Buxorodagi Kalon minorasini Usto Baqo tomonidan 1127 yilda qurildi. Jarqo`rg’on minoraoini 1108 yili me`mor Ali Seraxoiy tomonidan qurilgan. SHaxrisabz Oqsaroyini Muxammad YUsuf 1400 yilda, Gur Amirni Muhammad Isfaxoniy kabilar va umuman o`rta asr o`zbek me`morchiligida SHamsiddin, Zaynidlin Buxoriy, Badiriddin Samarqandiy, Ali Nafasiy, Ustod Faxrali, YUsuf SHeroziy, Usta Siddiq kabi me`morlar katta ijod qildilar.

SHo`rolar davrida O`zbekiston me`morchiligini asosan Rus me`morlari olib bordilar. Toshkent, Samarqand, Farg’ona, Namangan, Buxoro kabi shaharlar me`morchiligida hozirgi zamon me`morchiligi yutuqlari qo`llanildi. Bu davrda Evropa me`morchiligi ta`siri ancha kuchli bo`ldi. So`nggi yillardagina milliy uslublar qo`llanila boshlandi (rasmlar………).

O`zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy me`morchiligimiz qayta tiklana boshladi. Mamlakatimizning shahar va qishloqlarida bunyod etilayotgan ko`p qavatli binolar o`z chiroyini o`zbek milliy me`morchilik an`analari bilan namoyish eta boshladi. Mustaqillik yillarida R.SHokirov, YU. Xoldaev, A.Turdiev, R.YOqubov, F.Tursunov, V.Akopdjanyan, N.Valieva, N.Bandeladze kabi me`morlar ijod qilmoqdalar.

O’zbekistonda san’at va madaniyatning rivojlanishi o’zining qadimiy tarixiga ega. U bir necha asr davomida va turli bosqichda san’at, madaniy merosimizni boyitdi. Bizgacha etib kelib, xozirga Parijdagi milliy kutubxonada saklanayetgan, XIX asrda mansub Rashid-ad-Dinning “Maqolalar to’plamiga” ishlangan miniatyura (mo’jiz san’at) portretlari O’rta Osieda qadimgi tasviriy san’at asarlari xisoblanadi.

XIV asrda kelib Samarkandda Amir Temurning “Bogi Shamol”, “Bogi - Dilkusho” saroylari devorlariga, xarbiy yurish, jang va ov marosimlarida Temurni o’z kanizaxlari, Amir, shaxzodalari bilan o’z davrining miniatyurachi rassomi Axmad-Bogi-Shamol tomonidan tasvirlangan.

O’rta Osie miniatyura san’atini qo’llab rivojlanishi XV asrda boshlanadi. XV asrni ikkinchi yarmida Xirot Xusayn Boyqaro saltanatida ulug o’zbek shoiri Alisher Navoiy raxnamoligida taraqqiy etgan madaniyat o’chogida aylanadi.

Xirot adabiet va san’at namoendalari ichida K. Bexzod erqin yulduz bo’lib erqiradi.

Ulug miniatyurachi musavvir o’z zamondoshlari: Sulton Xusayn Boyqaro, Shayboniyxon,shoirlar Jomiy, Xatefi, Qabi larn ajoyib portretlarini chizib bizlarga meros qilib qoldirgan.

Portretlar chuqur ruxiy xolatlari bilan ajralib turadi. Sulton Xusayn Boyqaro portreti tashqi qiyofasi xarakterli xaqida Bobur o’z xotiralarida shunday tariflaydi: U ma’noli qarab turgan, maxobatli, gavdasi kelishgan ba misoli sher, berilgan pasti ingichka. U sergap, xushchakchak Xurosonda 40 yil davomida davlatpanox bo’lgan, Bexzod O’zbek xoni Shayboniyxon portretini 1507 yil Xirot olingandan keyin yaratdi. U ulug sarkarda davlat arbobi, ilmli olim, adabiyot va san’atni nixoyatda uluglaydigan shaxs edi.

Xon kalta engil oddiy oddiy Xirot xalat boshida salla, chordona qilib o’tiribdi. Ogir vaznli, to’gri tizzasida yuz qiyofasida matonatli kalta galb egasi siymosida tasvirlangan.

Bexzod portretlari yaxlit ranglar bilan tasvirlangan, Chiziqlarni aniq va plastik tuzilish xususiyatlari tasvirlangan. Chiziqlarni aniq va plastik tuzilish xususiyatlari Shayboniyxonni qudratli elka va gavda qiyofasini ifodalab beradi.

Shayboniyxonni portretida intererdagi siyoxdon, kitob, kamchin, katta ong barmogidagi uzun qabi  predmetlar tomoshabinga ulug sarkarda qiyofasini ochib berishga, boyitadi.

Kamoliddin Bexzod o’z asarlarida o’sha davrda portret miniatyura san’ati cho’qqizga erishdi. Xusayn Boyqaro karorgoxida miniatyura san’atida boshqa rassomlar xam ijod qilgan. Tarixchi Xondamiz 1498 yil Qosim – Alini asrimizning qaymoqlari, nozr asar mualliflarining sardori deb baxolagan edi.

U san’at sir-asrorining Xusayn Boyqaro kutubxonasida egalagan edi.

Shaybonyxon saroyida bexzodning qobiliyati shogirdlaridan biri Maxmud Muzaxxib (Muzaxxib Oltin bilan bezovchini anglatadi) o’z ustozidan eng yaxshi fazilatlarini tasviriy vositalarda yaxlit ifoda etishn o’rganadi. Uning dastlab xammaga ma’lum A. Navoiy portret (XVI) misol bo’lishi mumkin.

Mo’ysafed yoshlardagi shoir, xassoga tayanib turgan xolda tasvirlangan.

“Men keksaysam xam tanam tetik mening so’zlarim xanuz kilich qabi o’tqir” degan edi Alisher Navoiy.

XVII-asrda bir xil o’rta Osiyo rassomlari o’zi vatanidan uzoqqa miniatyura san’atida an’analarini davom ettirdilar.

Rassom Davlat Muxammad Xindistonga boburiylar saroyida sulton va ularni bilalarini, saroy amirlarini, shoirlarining portretlarini yaratdi.

Shu davrda Xindistonda Muxamad Murod Samarkandiy Bobur saroyida ijod qilib, portret ustasi nomini oldi.

Miniatyurachi rassom tashqi dunyodagi xaqiqatni – kuzatib xayyotni tasavvurlari asosida kompozitsiyaning ma’lum qonun qoidalariga amal qilgan xolda asar yaratadi.

Shuni ta’qidlab o’tish kerakki, O’rta Osiyo va O’zbekiston xalqlarini o’tmishda qoldirgan boy madaniy va estetik merosiga qaramay, tarixiy ob’ektiv sharoitlar sababli realistik tasvir san’at o’z shaklini topmadi.

XIX – asr 60 – yillari o’rta Osiyoda, rus ilgor realistik san’ati o’z ta’srini qo’rsata boshladi. Tashrif buyurgan rassomlar o’z asarlarida erli halq va tabiatni tasvirladilar.

Turkistonda birinchi bo’lib ijod qilgan rassomlar ichida “Turkiston turkumi” suratlarini yaratgan ijodkor V. Verещagin xayetni kuzatuvchi sifatidir etnografik xayet tarzini chuqur o’rganib etyud va eskizlar bajarib natijasida xar xil mavzusida asarlar yaratadi. Uning “Balogatda etmagan bola savdosi”, “Zindon”, “Naqshbandlar” shular jumlasidandir.

Uning tarixiy janrdagi yaratgan eng katta asari “Tantana qilmoqdalar”, deb nomlanadi “Registon maydonida bo’lib o’tayotgan bu marosimda mustaqillikka karshi yurish qilgan kuchlar ustidan qozonilgan galaba tantanasi o’z ifodasini topgan”.

Kompozitsiya jixatidan ko’p figuralari qo’p planli bu asarda oddiy fukaro darveshlar, oddiy yurboshi

sarbozlar, ularni bo’lib o’taetgan tantanada psixologik munosabatlari, milliy liboslari aks etgan queshning erug shu’lada samarkand tabiati iliq gammaga tasvirlab berilgan.

O’zbekiston zamonaviy realistik tasviriy san’atida asosan XX asr boshlarida O’zbekistonda kelgan rus rassomlari tomonidan asos solindi. Birinchilar qatorida M. Kursin, P. Bure, I. Kazakov, A. Yusupov, N. Rozanov qabi rassomlarni aytish mumkin.

1981 – yili Samarkandda, 1919 yilda Toshkentda Turkiston o’lka rassomchilik maktabi tashkil topdi, boshqa rassomlar qatorida A. Volkov eshlarga dars berdi. Samarkandda esa O. Tatevosyan raxbarlik qiladi.

O. Tatevosyan rassom sifatida 20-yillarda tanildi. U o’zini manzarani, natyurmort, portret, maishiy janrlarda sinab qo’radi, va asarlarida sharqni o’zicha talqin qildi.

Rassom shaxar tor qo’chalarini qo’rib, masjid-madrasalarga, xonadonlarga kirdi, bozordagi shovqin – suron, savdo – sotiq bilan band, ranglarga boy libosdagi odamlar xaetini kuzatdi. Ularni kuesh nurida tovlangan sherlarini mashaqqatli mexnat evaziga etishtirilgan meva, noz – ne’matlarning rang – barangligi uning qo’zini qamashtiradi, yangi ijodga ilxom bagishlaydi.

U ilk bor “Xivali qiz” suratini yaratdi. Peshin payti, charogon kush nuriga gard chumilgan Xiva xovlilarining birida o’smir qiz charx o’tiribdi. Unig engida quldor kuylak, boshida chiroyli do’ppisi.

Qo’zlarini diqqat bilan boqishi, boshini sal egilganligi, qo’llarning xarakati, uning berilib ishlatganidan dalolat berib turibdi, surat bo’eklarining erqinligini, uni erkin uslubda ishlaganligi tufayli, asardagi milliy koloritni yanada chuqur xis etamiz. Uning egnida quldor qo’ylak, boshida chiroyli do’ppisi qo’zlarini diqqat bilan boqishi, boshini sal egilganligi, qo’llarning xarakati, uning berilib ishlatganidan dalolat berib turibdi. Surat bo’eklarining erqinligi, uni erkin uslubda ishlanganligi tufayli, asardagi milliy koloritni yanada chuqur xis etamiz. Bu asarni O’zbek tasviriy san’atida birinchi realistik ijod namunasi olish mumkin. O’z paytida u Tretyakov davlat galereyasining doimiy ekspozistiyasining o’rin olgan edi.

Rassom 30  yillarda katta tematik suratlar ishlash uchun etyudlar, xomaki chiziqlar sifatida materiallar to’pladi.

Uning “Xujum” nomli pillakashlik fabrikasi “Registonda 8- mart” polotnalari shular jumlasidandir. U o’z ustozlari D. Kardovskiy, I. Repindan o’rgangan xaetni chuqur aks ettirish, badiiy obrazlar yaratish an’analarini davom ettirib o’ziga xos ranglar “Politra”sini yaratadi. “Uzum uzish” eki “Dugonalar” kartinasida qo’p millatlik vatanimizda xalklar do’stligi goyasi obrazi ochib berilgan. Janubning saxiy kueshi, guzal farovon turmushi asar kompozitsiyasida moxirona xal etilgan.

Qalin novda va barglarni orasidan tushgan kuesh nurlarida pishib etilgan uzum boglari manzarasi fonida ikki qiz tasvirlangan. Biri o’zbek, ikkinchisi rus qizi, ular kompozitsiya ma’naviy markazini tashqil etadi.

Asarning personajlari, zavq bilan tomosha qilaetgan, qizlar xam, bolalar xam keksa bogbon xam bir oila a’zolaridek qo’rinadi.

Tasvir erqin bueklarda ishlangan. Unda xavo qo’p bo’lib, serkuesh O’zbekistonningguzal tabiati juda nafis ranglashga aks ettirilgan.

O. Benkov, xayetni ko’p ko’rgan, eshi ulug odamlar suratinin chizishni ektiradi. Uning eng yaxshi yaratgan asarlaridan biri “Ilgor kolxozchi portreti” edi. Unda sochlariga ok o’ralgan, mexnatdan chinikkan insonning obrazi aks ettirilgan.

1945 yili P. Benkov safdoshi – shogirdi Z. Kovalevskaya bilan bir – birlarini portretlarini chizishdi.

Portret ulug gammada ishlangan bo’lib, ayni ijod pallasini aks ettirgan. Samarkandda o’tgan xaetni tematik kompozitsiyalar maishiy kartina va portretlarga boy bo’ldi. Lekin manzara ishlashni xam kancha qilmasdiki.

U uzining 20 yillik ijodida “Bibixonim”da baxor, “Shaftoli gulladi”, “Tokzorli xovli” qabi  ajoyib manzaralarni yaratdi. Biz yukorida qo’rib chikkan asarlardan P. Benkovning nakadar zabarbast rassom bo’lganligida ikror bo’lamiz.

Uning ijodi pedagogik faoliyat bilan chambarchas boglangan. U Samarkand rassomchilik bilim yurtida umrini oxirigacha eshlarida saboq berdi, tasviriy san’at sirlarini o’rgatdi. U ajoyib ijodkor eshlarni tarbiyaladi.

Shular orasida O’zbekiston xalk rassomlari Lutfulla Abdullaev, malik Nabiev, Abdulxaq Abdullaev, z Kovalevskaya O’zbekistonda xizmat qo’rsatilgan san’at arboblari Yu. Elizarov, R. Temurov, V. Fadeev rassomlar A. Rozikov, R. Chernishev va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Uning pedagoglik maxoratining siri, yuqori darajali qobiliyati, chuqur bilimida, eshlarga bo’lgan mexrida edi. U o’z o’quvchilarda kundalik xaetni sezish uni go’zalligini ko’ra bilish va bu guzallikni o’z asarlarida aks ettirishni o’ktiradi. Naturani to’gri anglab chizishni, fikr yurgazishni, xotiradan chizish, kuchaytirishni talab qildi. Muntazam ravishda soya – erug ranglarni o’rganishini chizib qo’rsatadi.

Shogirdlar xatolarini qo’rsatib, bilan professional maxoratiniortirishga undardi.

Benkov Eshlarda san’atda bo’lgan ijodiy qabi  muxim kimmatli fazilatlarga ega edi. Samarkandda rassomchilik bilim yurti shakllanishidaBenkov o’z tajriba bilimini ayamadi.

1936 yili Leningraddagi sobiq ittifoq qo’rgazmasida Benkov uni o’quvchilarning ijodi namunalari yuqori baxolar oldi.

Bu ajoyib inson, o’z asarlari qabi  erug, saxovatli edi. Shu yillar Respublika rassomchilik maktabini B. Xamdamiy bilim yurtlarini A. Toshkenboev, I. Abdullaev, A. Rozikovalar, Moskva, Leningrad, Penzabilim yurtlarini I. Ikromov, A. Sa’diy, O’. Tansiqboevlar tamomlab ijodga yo’llanma oldilar.

Ularning ijodiy maxorati “To’y (1932)”, B. Xamdamovning, I. Abdullaevning “Paxta terimi (1931)”, Roziqovning “Maktabga (1932)” asarlarida namoen bo’ldi.

Akram siddiqiyning “To’y” kartinasi katta gulli so’zana kontrast ranglarda, kompozitsiya tuzilishi amaliy san’at elida tasvirlangan. U uzbek xalk amaliy san’atini yaxshi o’rgangan edi. Realistik san’at yo’lidagi bu asarlarning yaratilishi Respublika badiiy xayetda muxim voqea bo’ldi.

Ijodiy izlanishni A. Siddiqiyda yaqin bo’lgan O’. Tansiqboevning erqin ranglar tizimida “Choyxona” (1934) kartinasini yaratdi. B. Xamdamiyning tingdoshi rassom A. Toshkentboev mexnat, kundalik xaetni voqealari mavzusidagi asarlar yaratdi. 1934 yili bularni yaratgan kompozitsiya asarlari qo’rgazmasida yaxshi baxolandi. P. Benkov bilan Samarqand rassomchilik maktabdida eshlarda dars bergan Z. Kovalevskaya “Teatr lojasida” nomli ajoyib asar yaratdi. Teatr lojasida o’tirgan o’zbek qizlarni nigoxlarida xayajon, go’zallik xis tuygularini qo’ramiz.

Orqada e’tibor bilan binoklda kuzataetgan keksa erkak va aelni xotirjam qarashlari, qo’l xarakatlari lirik xolatini qo’rish mumkin.

Rangtasvir kompozitsiya jixatidan o’ziga xos milliy koloritda ifoda etilgan. P. Benkov, A. Volkov qo’lida o’qigan B. Xamdamiy, I. Abdullaev, R. Temurov, R. Nasritdinov, A. Raximov, A. Toshkentboev, A. Roziqovlar, o’z ustozlarini yaxshi an’analarini davom ettirdilar, mazmun, goyalarni kengaytirdilar. Ayniqsa Samarkand rassomchilik bilim yurtini bitirgan I. Abdullaev dastlabki “Paxta terimi” (1931 yil) kartinasi bilan tomoshabin va san’tshunoslar fikrini qaratgan

bo’lsa, keyinchalik etuk rassom sifatida murakkab kompozitsiyasi asoslarini yaratdi.

Ayniqsa “Esh shoir xuzurida” kartinasida kompozitsiya ustasi ekanligini tasdiqladi.

Yigit va qizlar esh shoirning sherlarini eshitmoqda. Zamonaviy xonada shoir gavdasi aniq tasviri kompozitsiya markazini tashqil etadi.

Qo’lini qo’tarib tantanali xayajon bilan sher misralarini o’qimoqda.

Eshlarning bilimga chanqokligi, mexnatga mexr bilan intilishi ifodalangan.

Uning “Mulla To’ychi Toshmuxammedov” portreti, “Frontdan qaytish”, “Quruq er ovchilari”, M. Nabiev, S. Muxammedov, X. Raxmonovlar bilan xamkorlikda yaratilgan poyafzalchi “Ubay Raxmatullaev brigadasi” asari eng yaxshi san’at asari sifatida O’zbekiston Davlat san’at muzeyida saqlanmoqda. Yuqorida qayd etib o’tilgan rassomlar 50-yillarda Toshkentdagi Benkov nomli rassomchilik bilim yurtida eshlarga dars berdilar, rasm chizish va kompozitsiya asari yaratishni o’rgatdilar.

40 – 50 yillarda shular bilan bir qatorda rassomlar eshlarga tasviriy san’at sirlarini o’rgatdilar. Maishiy janrda qo’plab asarlar yaratgan rassom N. Kashinadir. Uning “Doira cholaetgan qiz” (1945 yil) “Tushki tanaffuz” asarida insonni mexnat bilan barxaetligi, uni toza xavo, oftob nurlaridan tabiatdan zavqlanaetgani o’z aksini topgan.

Asar kompozitsiyasi, rang koloriti, milliy ruxda, insonni zamonaviy xislatlari, kompozitsiyani tuzib vositalari namoen bo’lgan. Eshlarga metodik tavsiya vazifasini bajaradi.

1947 – yili Ch. Axmarov, Toshkentdagi Navoiy nomli opera va balet teatri binosi foyesi devorida A. Navoiyning “Farxod va Shirin”, “Layli va Majnun” asariga bagishlangan maxobatli rangtasvir asarini ishladi. Asosiy mavzu afsona eki bo’lib o’tgan voqealar bo’lishiga qaramay, tipajlar, ularni aniq o’xshashligi, murakkab kompozitsiya echimida topilgan.

Tasvirdagi odamlar xajmsiz aniq chiziqlarda va engil nozik ranglar tusida tasvirlangan.

“Monumental” panno mavzusida A. Navoiyining “Farxod va Shirin”, Etti guzal, Etti sayera, Iskandarnoma, Layli va Majnun, asosida “Farxod va Shirin”, Etti guzal, Etti sayera, Iskandarnoma, Layli va Majnun,” Iskandarning kurilishini kelib qo’rib kompozitsiyaning asosiy negizini tashkil etadi. Shirin kanizaxlari bilan Farxodga nigox tashlab uni qilgan jasoratiga ta’zim qilayotgan vaqti ifodalangan. Asarning muvaffaqiyatli chiqishida rassomning A. Navoiy dostonlarini yaxshi sinchiklab o’rganganligi kata yordam bergan. Bu asar uchun Ch. Axmarov 1948 yili “Davlat mukofoti”ga sazovor bo’lgan edi.

50 yilarda rassom Moskva, Kazan, Dnepropetrovsk, Kemerovo shaxarlarida asosan maxobatli – devoriy asarlar ustida ishladi.

1961 – yildan boshlab Ch. Axmarov ya’na O’zbekistonda ijod qila boshladi. “A’lochi qiz”, “Raxima”, “Balerina”, Rassom “Temurov portreti”, “Mukarrama Turgunboeva”, “Zulfiya” qabi portretlarni yaratdi.

Ayniqsa shoira “Zulfiya” portretlarida nozir chizgilar bilan gavda va qo’l xolati, liboslar o’ziga xos go’zal xolatda ifodalangan.

Shoirning samimiyligi, yoqimtoy nigoxi chuqur poetik ijod soxibu ekanligi sezilib turadi. Ch. Axmarov zamonaviy o’zbek ayolini ziyyo tarkatuvchi ma’naviy boyligini, ichki go’zalligi ochib bergan. Chingiz Axmarov qo’a yillar davomida K. Bexzod nomli Toshkent milliy rassomchilik va dizayn institutida kafedra mudiri, professor bo’lib ishladi.

Qo’plab o’zbek “Monumental”chi rassomlarni etishtirib chiqardi va o’ziga xos maxobatli kompozitsiya san’ati maktabini yaradi, 1953 – yili repin nomdagi Leningrad, badiiy akademiyasi institutini R. Axmedov, N. Qo’ziboev, T. Oganesov, m. Saidov, V. Zelikov, muxina nomidagi oliy san’at bilim yurtini V. Smakin, V. Sosedovlar(1954-1955) yillar V. Shukurov nomidagi Moskva rassomchilik institutini Yu. Elizarovlar tamomlab yang kuch va ishtiyoq bilim san’at olamiga kirib kelishdi. Ijod bilan bir qatorda P. Benkov nomli rassomchilik bilim yurtida yoshlarga saboq berishdi.

Shu sababli o’sha yilari bilim yurtini bitirib o’quvchilarning turli nufuzli oliy badiiy o’quv yurtlariga kirib o’qishlariga zamin yaratildi.

Ular orasida yosh va iqtidorlisi N. Qo’ziboevdir. Uning Qoraqum xavzasiga bagishlangan “Qidiruvchilar” (1953) yil diplom ishi a’lo darajada ximoya qilinib, DAK a’zolari va raisi oganson maktoviga sazovor bo’ldi va institut muzeyidan doimiy o’rin oldi.

O’zbek xalkning orzusi quruk erni ochishga otlangan xalqning shijoatli, gayrati N. Qo’ziboevning “Qidiruvchilar”, “O’zboy o’zanida”, kartinasida o’z aksini topgan.

Mazmun va kompozitsiya jixatidan o’ta antiqa, zamonaviy bu asarda maxorat bilan, jazirama issiqda ishlayotgan matonatli kishilar obrazini tasvirlab berilgan.

Asar kompozitsiyasida chodir yonidagi shijoatli odamlar, yuk ortilgan tuyalar, maxsus qidiruv ishlari jixozlari tasvirlangan. Inson kuch – kudrati bilan tabiiy ofatlarni engib, cho’lni – bogu – bo’stonga aylantirayotgan tasviri manzarasini guvoxi bo’lamiz. Rassom xaqikatni jozibali tasvirlangan.

Kompozitsiya jixatidan mavzu va ma’no bir – biriga juda mos boglangan. Cho’l oftobida toblangan yaratuvchi inson obrazi asarda eng muxim vositasidir.

1954 – yili Toshkent san’ati institutida rassomchilik fakulteti, 1955 – yilda nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetida “Badiiy grafika” fakulteti tashkil topdi.

Bu erda dastlab O. Tatevosyan, V. Podgurskiy, R. Axmedov, A. Krivonos, N. Qo’ziboev pedagogika institutida Yu. Elizarov, G. Oganesov, V. Yurovskiylar tasviriy san’at asoslaridan yoshlarga dars berishdi.

Ayniqsa R. Axmedov tashabus qo’rsatib, qo’p mexnat qildi. Shijoatli, olov qalbi bu inson keyinchalik butun umrini O’zbekiston tasviriy san’at maktabini tashqil topib, rivojlanishiga bagishlanadi, samarali mexnati va ijodi uchun nufuzli davlat mukofotlari, oren medallariga sazovor bo’ldi.

Rossiya badiiy akademiyasi muxbir a’zosi, O’zbekiston Badiiy Akademiyasini akademigi professor Raxim Axmedov institutda ijod laboratoriyasini, tasviriy san’at bo’limlarini ochdi, keyinchalik aspirantura tashqil qildi.

Uning maqsadi yosh iqidorli rassomlarni tarbiyalab, o’qitish va O’zbekiston tasviriy san’atini rivojlantirishdan iborat edi.

Musavvirning “Ona o’ylari”, “Tong”, “Sora Axmedova” portreti, “Lola” portreti “Oqtoshga baxor”, “Surxandaryolik ayol” asarlarida jozibali ranglar vositasida o’zbek xalqining o’tmishi, ichki dunyosini, xis tuygu, orzulari o’z ifodasini topgan.

Raxim Axmedov dastlab portret soxasida juda berilib ijod qildi. Zamondoshlarni betakror obrazini, mazmun goyalarni ifodalashda o’ziga xos badiiy til topdi. Portret yaratganda nafaqat uni tashqi qiyofasiga, ranglarni uygunligiga, balki uni chexrasidagi insoniy fazilatlarni ochib berishga intilardi.

Shuning uchun mexnatsevar xalqning milliy xususiyatlarini, o’zida mujassamlashtirgan ayollar, o’spirin – yoshlarni obrazini yaratishga qaratilgan edi.

## 2.3.Me’morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik.

Amaliy san’atga bu qadar chuqur falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stilizastiya - ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o’zbek milliy bezak san’atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo’lgan va hozirda ja honga mash hur me’morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagi san’atlarning ajoyib darajada uyg’unligidan va mujassamligidan dalolatdir. Xalq amaliy bezak san’ati kishilarning ma’naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ru hiyatini tarbiyalaydi.

Shuning uchun ham o’zbek xalq amaliy san’ati kishilarni badiiy-ahloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, hamda madaniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Yaqin o’tmishda o’zbek amaliy bezak san’atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o’ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, bo’yrachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo’zlik, gilamdo’zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o’ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san’atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu so halarda nom qozongan ustalarning xizmatlari butun ja honga dong’i ketgan.

O’rta Ociyo naqqoshlik san’ati qadimdan dunyoga mashhur. o’tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo’qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar hozirgacha bizni hayratga solib kelmoqda.

**Naqsh-** arabcha tasvir, gul degan ma’noni bildirib, u qush, hayvonot, o’simlik dunyosi, geometrik va boshqa turli shakllarning ma’lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir.

Islom talablariga buysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo’qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o’zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo’ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi.

Naqqoshlik xalq-amaliy bezak san’atning bir turi sifatida qadimdan o’zbek madaniyatining mu him bo’lagi hisoblanadi. Ko’p asrlar mobaynida uning badiiy an’analari vujudga keldi va rivojlandi. Naqshlarda san’atning boshqa hamma turlaridan farqli ravishda avlodlarning chambarchas bog’liqligini, milliy an’analarning davomiyligini ko’rish mumkin. Naqqoshlik an’analari san’atning ana shu turini o’rganish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan o’g’ilga o’tib kelgan. Ana shu davomiylik tufayli naqqoshlik san’ati hozirgacha saqlanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go’zalligi bilan farqlanadi. Bunda xalq ustalarining atrof mu hitga qarashlaridagi tafovut aks etadi. Naqshdagi chizgilar o’yini musiqadagi o hang singari, qo’shiq va ertak kabi “xalq hayotiy tajribasining katta umumlashmasidan” tarkib topgandir.

Badiiy naqqoshlik ranglarning uyg’unligida va o’ziga xos kompozistiyalarda go’zallik yaratish san’atidir. Naqqosh usta o’z ishida ranglarning tabiiy jilosidan va uyg’unligidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mo hirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka erishadi.

O’zbekistonning an’anaviy me’morchiligida naqqoshlik asosan shiftlarni, jimjimador araqilarni, saroy ustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarning uylari, yog’ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo’llangan.

Nozik o’simliksimon-geometrik naqshdagi o’zaro singib ketgan novdalar, shoxlar va hashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, o’zbek ustalarining ishlaridagi islimi va girix naqshlarining klassik motivlari shiftlarning shakliga moslangan. Naqsh ko’proq intererlarni va yopiq ayvon, peshayvonlarni bezashga xizmat qiladi.

U hozirgi paytda naqshdan me’morchilikda, uy ji hozlari, sovg’alar, mayda yog’och o’yinchoqlar, musiqa asboblari va turmushda kerakli buyumlarni bezashda foydalaniladi.

Badiiy naqqoshlik san’ati hozirgi kunda keng tus olmoqda. Matbuot, radio, televidenie, kino orqali kishilar ana shu san’at namunalari va uning xalq ustalari bilan tanishmoqdalar. Bu san’atkorlar orasida O.Qosimjonov, E.Raufov, A.Boltaev, S.Norqo’ziev, A.Azimov, A.Isaev, B.Abdullaev, T.To’xta ho’jaev, J.Xakimov, Z.Bositxonov, M.To’raev, T.A hmedov, K.Karimov, A.Il homov va boshqalar bor. Xalq ustalarimizning, ulardan ta’lim olgan shogirdlarning ishlarini Toshkentdagi amaliy san’at muzeyida, ko’rgazma zallarida, badiiy salonlarda, shuningdek, turar-joy va jamoat binolarida, masalan, Toshkent Davlat stirki, Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri, Milliy akademik drama teatri, Temuriylar tarixi muzeyi, Oliy Majlis va Sha har Hokimiyati binolari, metro stanstiyalari, me hmonxonalar, kabi ma’muriy va maishiy inshootlarda ko’rish mumkin. Hozirgi vaqtda maktablarda va maktabdan tashqari muassasalarda to’garaklar tarmoQini iloji boricha kengaytirish vazifasi qo’yilmoqda. Xalq naqqoshlik san’atini o’rganish o’quvchilarda badiiy didni, me hnatsevarlikni rivojlantirishga va qator foydali bilim hamda malakalarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Ularning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va o’stirishga yordam beradi.

## 2.4.Me’morchilikda dekorativ - haykaltaroshlik

Istirohat bog’lari, xiyobonlar, ko’cha va parklar, shuningdek, me’morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning hamma turlari dekorativ-haykaltaroshlik san’atiga mansub. Agar monumental-haykaltaroshlik asarlarida mavzu aniq. obrazlar ko’tarinki ruhda ishlansa, dekorativ haykaltaroshlik asarlarida mavzu aniq ko’zga tashlanmasligi, obrazlar biroz erkin, shartli bo’rttirishlardan foydalanish orqali talqin etilishi mumkin. Haykaltaroshlikning bu turida turli hayvonlar shakli ham keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan turli bo’rtma tasvirlar, amaliy san’at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar, turli fontanlar, panjaralar, badiiy darvozalar, ham shu haykaltaroshlikning ko’rinishi hisoblanadi.

**Dastgoh haykaltaroshli.** Dastgoh haykaltaroshligiga mustaqil mazmunga ega bo’lgan, san’atning boshqa turlariga tobe bo’lmagan asarlar kiradi. Bunday asarlar ko’rgazmalar, uylarga qo’yish uchun mo’ljallangan bo’ladi. Haykaltaroshlikning bu turida voqelik butun borlig’i bilan aks ettiriladi hamda inson psixologiyasidagi nozik o’zgarishlar, uning ichki ruhiy kechinmalari, kayfiyatini ochib berish imkoniyati katta bo’ladi.

**Haykaltaroshlik ifoda vositalari.** Haykaltaroshlikda asosiy ifoda vositasi turli o’lcham va shakldagi hajmlar va ularing kombinastiyasi bo’lsa ham, lekin nur-soya imkoniyatini hisobga olish alohida o’rin tutadi. Ijodkor yorug’-soyalar o’yinidan foydalanish orqali o’z haykallarini ta’sirli va jozibali bo’lishiga erishadi. Haykal yorug’ - soya bilan tirik, ya’ni nur tushishi bilan u ham jonlanadi, yorurlikning o’zgarishi bilan undagi yorug-soya tovlanishi ham o’zgaradi, natijada, undan tomoshabin oladigan taassurot ham o’zgarib boradi. Bu narsa monumental va dekorativ haykallar uchun juda qo’l keladi. Chunki maydon yoki xiyobonga o’rnatilgan haykalga ertalabki tong quyoshining nurlari bir joziba bersa, kechki kun botish paytidagi quyosh nurlari boshqacha bir fayz kiritadi. Tungi oy nurlarida shu haykalning o’zi yana bir go’zallik kashf etadi. Shuning uchun haykal turli paytda kishida turlicha taassurot qoldiradi.

Haykaltaroshlikda insonning faqat tashqi ko'rinishi, tinch turgan holati yoki xarakatdagi paytini aks ettirish bilan uning imkoniyati tugamaydi. Undagi kechinmalar, uning xayajon va g'amginligi, kelajakka intilish va o'tmishga qayg'urishi ham o'z ifodasini topadi qanday. Haykaltarosh asarida insonning tevarak-atrofga bo'lgan munosabati ham, qalbidagi iztirob ham ishonarli talqin etilishi mumkin. Bunda, eng avvalo, haykaltaroshning o'ta ziyrakligi, odam gavdasi va mimik o'zgarishlarini to'g'ri ifodalashi muhim o'rinni egallaydi. To'g'ri topilgan xarakat, yuzidagi mimik xolat - bular uning ta'sirli bo'lishida muhim o'rinni egallaydi. Hayotiy shakllar bilan borliq haqida xikoya qilish,voqelikka munosabatlarini bildirishga erishdilar.

# Xulosa

Hozir amaliy san`atga, umuman ommaviy ko`rgazmali axborat vositalariga yosh avlodni xoyaviy, ma`rifiy va estetik tarbiyalashning muhim omillari sifatida qaralmoqda. Ayni paytda bularning sifatiga qo`yilayotgan talablar ham ortib borayotir. Bu talablar amaliy ma’naviyatga bevosita daxldor kishilarni mazkur ishlarning ta`sirchanligini oshiradigan yangi vositalarni, yangi kompozitsion echimlarni topishga dav`at etmoqda. Ana shu boradagi izlanishlar hozircha ma`lum bo`lgan va badiiy bezash ishlarida muvaffaqiyatli qo`llanayotgan nazariy asoslarni takomillashtirishda, yangi vositalardan oqilona foydalanishda o`z aksini topmoqda. Amaliy san`atning tarixiy kelib chiqishi insoniyatning bolalik davriga borib taqaladi. Bashariyat ulg’ayib borgan sari amaliy san`at ham yuksala bordi. Yashash uchun kurash mavjud ekan, yaxshi yashash uchun ehtiyoj kuchayib borish jarayonida qo`l mehnatidan aqliy mehnat ajralib chiqa boshladi.

Usta Shirin murakkab gumbaz sistemalarini qurish san`atini to`la egallagan; u O`zbekiston arxitektura yodgorliklarini qayta tiklash ishida faol qatnashgan. Ustaning nazariy fikrlari qali to`la o`rganilmagan bo`lsa-da, u chizgan arxitektura chizmalarning o`zi ham ko`pgina ma`lumotlar bera oladi. Usta o`nlab qobiliyatli shogirdlarni etishtirdi. qozirgi kunda ustaning san`atini Ibrohim Shermuqammedov, Aminjon Salomov, Rabijon qurbonov, narzulla Murodov, Toyir Jalilov, Ismat Ne`matov, qaybulla ne`matov kabi shogirdlari davom ettirmoqdalar. Usta ijodi qar tomonlama yoritilgan taqdirdagina uning binokorlik nazariy va amaliy fikrlari oydinlashadi.

Nafis ganch o`ymakorligi usta ijodida birinchi o`rinda turadi. Usta Shirinning o`zi ham o`ymakorlikni binokor usta san`atining yuqori cho`qqisi, deb hisoblar edi.

Men bu makaviy bitiruv ishimda Usta Shirinning dekorativ ornament yasash va o`yish san`atini qisqacha bayon etdim.

Ustaning uy-joy binolarini loyiqalash va qurishdagi ishlarini hali alohida tekshirish va uzoq o`rganishni talab etadi. Usta Shirinning ish uslubi, nozik kompozitsiyalari, uning bizgacha qoldirgan ajoyib va betakror san`at asarlari haqida

qancha gapirilsa, shuncha oz. Bu asarlarni o`rganish uchun va kelajak avlodga o`rgatish, ularni shu kasbga qiziqtirish uchun men o`z vaqtimni, mehnatimni va kuchimni ayamayman. Men qam usta Shirin kabi butun iste`drdimni asosan o`ymakorlikka baqishlamoqchiman.

So`ngida men Usta Shirinning quyidagi o`z niyat va istaklarini takrorlab kelajak avlod va yoshlarga takrorlamoqchiman: "Ganchkorlar san`ati tezroq kamol topib, qar bir uyga kirib kelsa deyman. Naqshin gullar qalbga quvonch, orom bag’ishlaydi. Bunday shinam uyda miskinlik va jaholatga o`rin yo`q. Shinam uyda yashagan har bir kishining o`z uyi, Vatani, xalqiga bo`lgan mehri ham kuchli bo`ladi.

# ILOVALAR

# FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 1992.

2. Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atni yanada rivojlantirishning davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31- mart farmoni “Xalq so‘zi” gazetasi. -T. 1997-yil 1-aprel.

3. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O‘zbekiston, 1998.

4. Karimov. I. A.“Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” T.,
“Ma’naviyat” 2008.

5. Karimov I.A.O‘zbekiston siyosiy-iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. -Toshkent: O‘zbekiston, 1995.

6. Karimov I. «Ma’naviyat falsafa va hayot». -T., «Fan».2001.

7. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni -Toshkent, 1992.

8. O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim markazi kontsepsiyasi.- Toshkent: Xalq ta’limi, 1992.-1-son.

9. Abduqodirov A. Obidalar jilvasi. -Toshkent: O‘zbekiston,

10. Avedova N.A. Toshkent o‘ymakorligi. - Toshkent: O‘z dav. Badiiy adabiyot nashr, 1961.

11. Azimov I. Farg‘ona vodiysining arxitektura yodgorilklari.-Toshkent: O‘zbekiston, 1986.

12. Azimov I. O‘zbekiston naqshu-nigorlari. -Toshkent: Adabiyot va san’at nashri, 1987.

13. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo.-Toshkent, 1992-yil.

14. Asotirlar va rivoyatlar. -Toshkent: Yozuvchi, 1993-yil. 15. Anuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi. -Toshkent: O‘qituvchi, 1969.

16. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar.-T.: 1968.

17. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. -T.: O‘zbekiston, 1992.

18. Amanullayev A.A. Oliy o‘quv yurtlarida talabalarni ganch o‘ymakorligi to‘garak ishlarini boshqarishga tayyorlashning ilmiy metodik asoslari. (Badiiy grafika fakultetlari misolida). Ped. fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: TDPU, 2001.

19. Amir Temur o‘gitlari: (to‘plam) tuzuvchilar B.Ahmedov, A.Aminov-T.: Navro‘z, 1992.

20. Alexin A.D. «O yazike izobrazitelnogo iskusstva», - M., 1973.

21 [1] A.Abduraxmanov A.Soadatga elituvchi bilim. Toshkent: Movarauinaxr, 2001,371 –bet.

**Internet saytlari.**

1.www.google.uz

2.www.gov.uz

3.Ziyonet.uz

4.www.uza.uz

5.www.stat.uz